

PEDAGOGNING SHAXSIY SIFATLARI. MUHANDISLIK GRAFIKASI
FANLARI O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK SIFATLARI.

Shodiyeva O'g'iloy Otayor qizi
Nizoniy nomidagi TDPU magistranti

Annotatsiya : Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda muallimlik kasbi odobining tarixiy ildizlari, o'qituvchining muhim axloqiy fazilatlari, kasb odobining tuzilishi, pedagog faoliyatining axloqiy tavsifi yoritilgan va bu asosida hozirgi zamон pedagog shaxsi sifatlari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik qobiliyati masalalari, pedagogik texnika hamda uni rivojlantirish usullarini keltirib o'tdik. Chizmachilik va chizma geometriya fanlarida pedagog egallashi lozim bo'lgan shaxsiy sifatlarni o'rgangan holda hozirgi paytda bu fanlarni o'qitishdagi pedagoglarning asosiy muammolarni o'rganib chiqishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, o'qituvchi shaxsi omili, kasbiy axloq, pedagog nutqi, pedagogik mahorat.

Annotation: In this article, the historical roots of the ethics of the teaching profession in Central Asia, the important moral qualities of the teacher, the structure of the ethics of the profession, the moral description of the pedagogue's activity are highlighted, and based on this, the qualities of the personality of the pedagogue of the present time, the issues of the teacher's pedagogical ability in the process of education, pedagogical technique are highlighted. and we mentioned the methods of its development. Having studied the personal qualities that a pedagogue should acquire in the subjects of drawing and drawing geometry, we tried to study the main problems of pedagogues in teaching these subjects at the moment.

Key words: pedagogical ability, pedagogical technique, teacher's personality factor, professional ethics, teacher's speech, pedagogical skill.

Аннотация: В данной статье выделены исторические корни этики педагогической профессии в Центральной Азии, важные моральные качества учителя, структура этики профессии, нравственная характеристика деятельности педагога и на основе этого освещены качества личности педагога современности, вопросы педагогического умения учителя в процессе обучения, педагогической техники и упомянуты методы его развития. Изучив личностные качества, которые должен приобрести педагог по предметам рисования и черченной геометрии, мы попытались изучить основные проблемы педагогов в преподавании этих предметов на данный момент.

Ключевые слова: педагогические способности, педагогическая техника, личностный фактор учителя, профессиональная этика, речь учителя, педагогическое мастерство.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasi bo'yicha o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Hozirgi zamонaviy texnologiyalarning hayotimizni egallayotgan bir sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli,

e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Pedagogik faoliyat - yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lif-tarbiya berishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. «Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» - deyiladi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunda. O'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oljanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Har bir bola o'z xulq- atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarmi tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalilanildi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning kasbnomasida ifodalanadi.²¹

Pedagog kasbi paydo bo'lgan vaqtidan boshlab, turli taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Tarixga nazar tashlasak, bu kasb turli nomlar bilan atalib kelinganini lekin asl mohiyatini hech ham yo'qotmaganligini ko'rishimiz mumkin. Muallim, ustoz, o'qituvchi, pedagog bu nomlar har xil ko'rinishga ega ammo ularning hammasi insonlarni komillik sari yetaklovchi har bir buyuk insonlar ortida turgan qanot ekanligini tarixdan ham bizga ma'lum.

Pedagog kasbining naqadar mas'uliyatliligi, murakkabligi, ahamiyatliligi va bu kasbning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda pedagog shaxsining shaxsiy sifatlari

haqida sharq mutafakkirlari ham o'zlarining turli fikrlarini, g'oyalarini aytib o'tganlar. Xususan, sharqning ulug' mutafakkiri Abu Ali ibn Sino o'qituvchining shaxsiy sifatlariga doir fikr mulohazalarida quyidagilarni aytib o'tganlar, "...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim".


Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rinn beradi. Allomaning

qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», - deydi.²²

Ulug' mutafakkir Burhoniddin Zarnujiy muallimning shaxsiy sifatlari haqida quyidagilarni keltirib o'tganlar:

²¹ R.Mavlonova, D. Abdurahimova. "Pedagogik mahorat" O'quv qo'llanma. -T ., «Fan va texnologiya», 2009, 176 bet.


²² Meyliyeva. L.N. "Sharq mutafakkirlari o'qituvchi imidji haqida" Maqola-2022



O'qituvchi o'quvchilarga faqatgina ta'lif emas tarbiyaham bera olishi lozim. O'quvchilar ilmli inson bo'lishi ham, axloqli inson bo'lishi ham pedagogning ular bilan ishlay olish qobiliyatining yuqori darajada ekanligiga bog'liqdir. Pedagogning pedagogik qibiliyatini qay saviyada ekanligini u ta'lif-tarbiya berayotgan o'quvchilar misolida ko'rishimiz mumkin.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va bu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogikada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratgan:




Ta’lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiy na’muna ko‘rsatishi hal qiluvchi ahamiyatga egaligini esda saqlash kerak. Chizmachilik o‘qituvchisi faqatgina bilimdon bo‘lib qolmasdan, amaliy grafik malakalarni puxta egallagan usta chizmakash, rassom ham bo‘lishi kerak. Chizmachilik o‘qituvchisiga kasbiy faoliyat davomida doimiy ravishda chizma (eskiz) yoki mahsulotlar rasmini solishga to‘g‘ri keladi. Chizmachilik o‘qituvchisiga bu malakalar uning ko‘rgazma, sayohat va boshqa joylarda ko‘rgan qiziqarli (original) narsalarni qog‘ozda (eslab qolish) qayd qilib borishi uchun zarur bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan shu usulda yig‘ilgan «chizma - g‘oyalar banki» uning ishida va o‘quvchilarining o‘qishlarida ijodiy yondashishlariga turtki bo‘lishi mumkin. Chizmachilik o‘qituvchisi maktab chizmachiliqi kursidagi hamma mavzularni chuqur va puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi bilan bir qatorda umumita’lim maktablari dasturida ko‘zda tutilmagan mavzular bo‘yicha ham yuqori ilmiy-metodik saviyada dars o‘tish malakasini egallashi zarur, Bularga kasb-hunar kollejlaridagi grafika yo‘nalishidagi mutaxassislik fanlari kiradi.²³

Barcha fan va sohalarda pedagog shaxsi bu qobiliyatlarni mukammal darajada egallagan bo‘lishi zarur. Muhandislik grafikasi fanlarida ham boshqa fanlar singari pedagogik qobiliyatlarning o‘rni yuqori bo‘lib, fan o‘qituvchisidan yuqori darajadagi salohiyatni talab etadi. Chizmachilik va chizma geometriya o‘qituvchisining shaxsiy sifatlari boshqa bir fanlar bilan taqqoslanganda murakkab shaxsiy sifatlarni o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Bu sifatlarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

²³ E.I.Ro‘ziyev, A.O.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet

Muhandislik grafikasi fanlari o'qituvchisining shaxsiy sifatlari.



O'qituvchilik kasbida shaxsiy sifatlari bilan pedagogning kasbiy imkoniyatlari va ularni to'la amalga oshirishi maqsadga muvofiq sanaladi. Rossiyalik pedagog I.P.Podlasiyning kasbiy imkoniyat to'g'risidagi xulosalariga asoslanib, "pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi" ni namuna tariqasida keltirishimiz mumkin.

/r	Kasbiy tayyorgarlik	Kasbiy ijodkorlik	Kasbiy yetuklik	Pedagogik madaniyat
1.	Kasbiy intilish	Pedagogik salohiyat	Innovatsion faoliyatni tashkil eta olish	Pedagogik tafakkur egasi
2.	Kasbiy shakllanish	Kasbiy bilimdonlik	Insonparvar bo'lish	Pedagogik texnikani egallash

3.	Kasbiy yo'nalganlik	Faoliyatni tashkil etishda individual uslubga ega bo'lish	Kasbiy kamolot	Munosabatlarni ijobiylashkil eta olish
4.	Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik	Faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabat	Kasbiy pozitsiyaga egalik	Ijtimoiy faollilik
5.	Kasbiy mahoratga erishish	Ijodiy tashabbuskorlik	Kasbiy faollilik	Metodik mahorat

Jadvaldan shu narsa ko'zga tashlanadiki, pedagogik faoliyat ko'pgina hollarda kasbiy imkoniyatlar va ularni tashkil etuvchi elementlar asosida ro'y beradi.²⁴

Muhandislik grafikasi fanlarida o'qituvchining nafaqat o'z mutaxassisligi yuzasidan balki pedagogik-psixologik nuqtai nazaridan ham yetarlicha bilim ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. Har bir pedagog ta'lim berish jarayoniga o'z uslubiga ko'ra yondashadi va dars mashg'ulotlarini o'z prinsiplariga ko'ra olib boradi. Pedagogikada o'qituvchining dars jarayoniga yondashishiga ko'ra, rahbarlik qilishiga ko'ra turlarga bo'lingan bo'lib, bularning har biridan o'z o'rnidagi foydalanish tavsiya etiladi. Bular:

1. Avtoritar – bunda pedagog o'quvchi, talabalarga ta'lim jarayonida qattiqko'l munosabatda bo'lishi natijasida o'quvchilar orasida o'qituvchidan hayiqish holatlari kuzatiladi. Dars jarayoniga bunday rahbarlik qilish o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bildirishlariga xalal berishi bilan birga ularning ta'lim jarayonidagi faolligini pasaytiradi.

2. Demokratik – bunda pedagog o'quvchi, talabalarga me'yor darajasida erkinlik berishi natijasida ular o'z fikrlarini erkin bildira oladilar. Pedagogning bunday rahbarlik faoliyati samarali hisoblanib, o'quvchi, talabalarning erkin fikrlashiga va o'z fikrlarini qo'rqmasdan bayon qila olishiga yordam beradi. Bunday rahbarlik faoliyati muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda foydalanish tavsiya etiladi.

3. Liberal – bunda pedagog dars jarayoniga layoqadsiz yondashishi ko'zga tashlanadi. Pedagogning o'quvchi, talabalarga keragidan ortiq erkinlik berishi natijasida ular o'rtasida darsga mas'uliyatsiz va bee'tibor qarashi ortadi. Dars davomida uzlusiz ravishda pedagogning bunday rahbarlik qilish usulidan foydalanishi o'qitish reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yuqori hisoblanadi.

O'qituvchidan dars davomida bu rahbarlik usullarining barchasidan o'z o'rnidagi va o'z vaqtida foydalanish tavsiya etiladi. Pedagog faqatgina ta'lim beruvchi emas balki tarbiya beruvchi hamdir. Bu nuqtai nazar bilan o'qitishga yondashgan pedagog o'z faoliyati davomida albatta o'z shogirdlari uchun o'rnak darajada bo'lishi lozim. Buning uchun esa yuqoridagi ta'limi jarayonidagi rahbarlik usullarini puxta o'zlashtirishi pedagog faoliyatida katta muvaffaqiyatga erishishiga yo'l ochadi.

²⁴ Kurbanova.G.N, "Kasbiy pedagogik" Buxoro davlat tibbiyot intituti" 2020-yil

Pedagog ma'lum bir fan yuzasidan tegishli mavzuni o'tishda avvalambor darsda qanday rahbarlik qilish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini belgilab olishi va dars davomida foydalaniladigan metodlarni to'g'ri tanlay olishi maqsadga muvofiq sanaladi. Muhandislik grafikasi fanlarining ko'p qismi amaliy ekanligini hisobga olsak, pedagog faoliyati o'z-o'zidan liberal rahbarlik usuliga o'tish holatlari kuzatiladi. Buni bartaraf etishda esa pedagogdan yuqori darajadagi kommunikativ qobiliyat talab etiladi. Kommunikativ qobiliyat o'qituvchiga o'quvchi, talabalarga psixologik ta'sir ko'rsatish natijasida ularning ta'lim jarayonidagi faolligiga erishishni ko'zda tutadi. O'qituvchining bir qolipda har bir mavzuga ayni usulda yondashishi o'quvchilarda qiziqishning pasayishi hamda darsda faollikning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu esa albatta pedagogdan tinimsiz harakat, o'z ustida ishlash hamda har bir faoliyatida kreativ bo'lishni talab etadi.

Pedagog, o'qituvchi kelajak bunyodkori desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda pedagog shaxsi yangicha fikrلaydigan, o'z ishining ustasi, yoshlar murabbiysi chinakam fidoiy, o'qituvchi, avvalo, bilimdon inson bo'lmog'i kerak. Bunday o'qituvchi-pedagoglar faqatgina faoliyat jarayonida shakllanadi. Chunki har qanday oliv pedagogika ta'lim muassasasi bunday o'qituvchiga faqat pedagogik ilmni, kasbning yo'nalishlari, sirlari to'g'risida ma'lumot beradi, xolos. Chinakam pedagog kasbining ustasi ta'lim muassasasida, bevosita va bilvosita mehnat jarayonida, o'z kasbiy malakasi ustida tinmay ishlash orqali qo'lga kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Mavlonova, D. Abdurahimova. "Pedagogik mahorat" O 'quv qo'llanma. -T ., «Fan va texnologiya», 2009, 176 bet.
2. Meyliyeva. L.N. "Sharq mutafakkirlari o'qituvchi imidji haqida" Maqola-2022
3. E.I.Ro'ziyev, A.O.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet
4. Kurbanova.G.N, "Kasbiy pedagogika" Buxoro davlat tibbiyot intituti" 2020-yil